

Authentic materials and their classification

Khafiza ABDURASHIDOVA¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

25 September 2024

Keywords:

speech activity,
language materials,
writing competence,
authentic materials,
authentic visual materials,
authentic written materials.

ABSTRACT

This article focuses on the importance of authentic materials in developing writing competence, providing a classification of these materials and evaluating their effectiveness. It also describes modern methods used to enhance writing skills. While acknowledging some negative aspects of using authentic materials, the article briefly emphasizes that their use can make lessons more effective. It highlights categories such as authentic audio-visual and written materials, which help address existing challenges. Additionally, it is noted that authentic texts serve as a motivational factor, contributing to more successful language learning.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp311-315>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Autentik materiallar va ularning tasnifi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

nutq faoliyati,
til materiallari,
yozuv kompetensiyasi,
autentik materiallar,
autentik vizual materiallar,
autentik yozma materiallar.

Ushbu maqolada yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning ahamiyati, ularning tasnifi va ulardan foydalanishning samaradorligi, yozuv kompetensiyasini rivojlantirishdagi zamonaviy metodlarning tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, autentik materiallardan foydalanishning salbiy jihatlari mavjud ekanligiga qaramay, ulardan foydalanib o'quv mashg'ulotlari tashkil etilishi, dars ko'proq samaliroq bo'lishi haqida qisqacha so'z yuritilgan va mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etishda autentik materialning kategoriyalaridan biri bo'lgan autentik audio vizual va autentik yozma materiallardan samarali foydalanishning ahamiyati hamda autentik matnlar tilni mukammal o'rganishda motivatsion omil bo'lib xizmat qilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

¹ Doctoral student, Termez State University.

Аутентичные материалы и их классификация

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

речевая деятельность,
языковые материалы,
письменная
компетентность,
аутентичные материалы,
аутентичные
изобразительные
материалы,
аутентичные письменные
материалы.

В статье рассматриваются значение аутентичных материалов в развитии письменной компетенции, их классификация и эффективность использования, а также современные методы, способствующие развитию письменных навыков. Несмотря на существующие недостатки при использовании аутентичных материалов, отмечено, что они делают учебный процесс более эффективным. Также подчеркнута важность устранения текущих проблем, связанных с одной из категорий аутентичных материалов. Рассматриваются аспекты эффективного применения аутентичных аудиовизуальных и письменных материалов, а также роль аутентичных текстов как мотивационного фактора в успешном изучении языка.

KIRISH

Hozirga vaqtda til o'rganuvchilarning asosiy vazifalaridan biri kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun chet tili madaniyatini o'rganish orqali kasbiy faoliyatida bevosita olgan bilimlarini ishlatishga qaratilgan madaniyatlararo muloqotda mustaqil va faol ishtirok etishdir. O'quv jarayonidagi amaliy mashg'ulotlarda chet tillarni o'rgatishda autentik materiallardan foydalanish bu muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida autentik materiallar, autentik matn kabi tushunchalarga katta e'tibor qaratiladi. Avvalambor, autentik so'ziga nazar tashlaydigan bo'lsak, yunoncha so'zdan olingan bo'lib, authentikos – asliyat ya'ni asliga to'g'ri, haqiqiy holatga mos degan ma'nolarni bildiradi [1; 400-b].


MUHOKAMA

Autentik materiallar tushunchasini ochib berishda va ulardan foydalanish muammosi ustida tilshunos-metodist olimlar M.P. Breen, G.I. Voronina, E.V. Nosovich, R.P. Milrud, L. Van Lier, B. Tomalin, F. Mishan, Gebhard va boshqalar tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Autentik materillar nima ekanligini tushunish uchun bir qancha yondashuvlar mavjud. Bu turdagi materiallar bilan shug'ullanish jarayonida, "Autentik matn" degan tushunchaga duch kelamiz. Bu tushuncha haqida W.Guariento va J.Morley "Autentik matn bu ishlab chiqarilgan til ham jamiyatida qandaydir ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish uchun yaratilgan" deb ta'kidlab o'tgan [2; 30-b].

F.Mishanning fikricha, autentik materiallar bu haqiqiy kommunikativ maqsadlar uchun yaratilgan matnlardir [7; 330-b].

Biroq M.P. Breen til o'rganish kontekstidagi autentik matnlar, o'quvchilarga haqiqiy tushunishni rivojlanishga yordam beradigan har qanday ma'lumot manbaini anglatadi, deb ta'kidlab o'tgan.

Gebhard autentik materiallarni quyidagi 3 ta kategoriyaga ajratgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Gebhard bo'yicha autentik materiallar kategoriyasi

“Autentik audio vizual materiallarning ommlashuvi til o'rganuvchilarga interaktiv til muhitini yarata olishidadir”, deb ta'kidlaydi rus olimi G.A. Vorobyov [2; 36-b].

Peacock autentik materiallarning quyidagi asosiy vazifalarini ta'kidlab o'tgan:

- ular talabalarining motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- ular haqiqiy madaniy ma'lumotlarni beradi;
- ular til o'rganuvchilarning xohish –istaklari bilan chambarchas bog'liq. [8; 144-b].

A.S. Rifat ham autentik materiallardan foydalanishning afzallik tomonlarini borligini ta'kidlab o'tgan. Ularga quyidagilar kiradi:

– talabalar taniqli odamlarining suhbatini turli xil videolar orqali ko'rish orqali haqiqiy nutqni o'rganishadi.

– Autentik materiallar talabalarni dunyoda sodir bo'layotgan voqealar haqida xabardor qiladi.

- Talabalar uchun qiziqarli bo'lgan mavzularni topish mumkin.
- Kitoblar, maqolalar va gazetalardan turli xil matn turlarini topish mumkin. [9; 55-b].

Matsuta ham autentik materiallarning ijobiy jihatlari ta'kidlab o'tgan:

– Autentik materiallar til o'rganuvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Ushbu materiallar haqiqiy madaniy ma'lumotlarni beradi.
- Til o'rganuvchilarning istaklari va qiziqishlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.
- Autentik materiallar orqali turli matnlarni o'rganishadi.
- O'quv materiallariga qaraganda autentik materiallar doimiy ravishda yangilanib

turadi.

- Talabalarining biror bir tilni tushunish va o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6; 397-b].

Dars jarayonida autentik materiallar samarali bo'lishiga qaramay tilshunos-metodist Richard tanqidiy fikrlarni ham aytib o'tgan. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Yaratilgan materiallar ham o'quvchilarni rag'batlantira oladi.
- Yaratilgan materiallar autentik materiallarga qaraganda muhim bo'lishi mumkin.

Chunki ular odatda til o'rganuvchilarning o'rganish darajasi asosida tashkil etiladi.

- Autentik materiallarda odatda tilni tushunish qiyin bo'ladi.
- Dars jarayonida autentik materiallardan foydalanish bu o'qituvchi uchun yukdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, autentik materiallardan foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari mavjud. Autentik materiallardan foydalanishning salbiy jihatlari mavjud ekanligiga qaramay, autentik materiallardan foydalanib o'quv mashg'ulotlari tashkil etilsa, dars ko'proq samaraliroq bo'ladi. Autentik materiallardan foydalanishning ajoyib tomoni shundaki, bunday manbalar hamma joyda mavjud. Masalan, autentik materiallar gazeta va jurnallardagi maqolalar bilan cheklanib qolmay, balki, qo'shiqlar, teledasturlar, filmlar, radio, podkastlar, menyular ya'ni ingliz tilida yozilgan har qanday narsa haqiqiy materiallar hisoblanadi. Bu esa talabalar uchun ingliz tilini o'rganishlarini yanada osonlashtiradi bundan tashqari, autentik materiallar orqali talabalar xorijiy tilni mustaqil o'rganish imkoniyatini ham ta'minlab beradi.

O'quv mashg'ulot jarayonida autentik materiallardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Misol uchun, dars jarayonida autentik materiallarni foydalanishda talabalar hech qachon uchratmagan so'z, so'z birikmalari yoki grammatik qurilmalarga duch kelishadi. Autentik materiallarni tinglash jarayonida tovushlarni va harflarning talaffuzini va diqqatni jamlashni o'rganishadi.

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda autentik materiallar yoki autentik bo'lmagan materiallardan foydalanish bo'yicha ko'pgina tilshunos olimlar tomidan muhokama qilingan. Ulardan biri Gilmor autentik materiallar va darsliklar o'rtasida tafovut borligini ta'kidlab o'tgan.

Chavez va Monikaning fikricha, autentik materiallar talabalarning motivatsiyasi bilan bog'liq va bu ularni rag'batlantirishga imkoniyat yaratadi. Ularning ta'kidlashicha, autentik bo'lmagan materiallar qaraganda autentik materiallar qiziqarliroq, jonliroq va ko'proq rag'batlantiruvchi hisoblanadi. Ushbu materiallar faqatgina til o'rganuvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishidan tashqari o'qituvchilar undan foydalanish orqali yaxshi natijalarga erishadilar [10;16-19 bb].

Tilshunos – metodistlardan biri bo'lgan Jacobson ham autentik materiallar haqida o'z fikrini bildirib o'tgan. Uning fikricha autentik materiallar bu til o'rganuvchilar tomonidan kontekstga moslashtirilgan materiallar va ularning hayotda qo'llaniladigan tarzda ishlatiladigan mashg'ulotlardir [3; 130-b].

Demak, yozuvchilar yoki ma'ruzachilar tomonidan kundalik hayotga bog'langan holda ishlab chiqilgan ma'ruzalar yoki xabarlar autentik materiallar hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, autentik materiallar bu ixtiro yoki kashfiyotning bir qismi emas, balki, real hayotga asoslangan muloqot shakli.

Biber autentik materiallar quyidagi xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Birinchidan, ular intuitivdan farqli ravishda obyektivdir. Ikkinchidan, o'quv manba sifatida qabul qilinganda, autentik matnlar kommunikativ muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Uchinchidan, autentik materiallar o'quv materiallar sifatida dars jarayoniga turli xil o'quv uslublarni olib keladi va bundan tashqari, talabalarning motivatsiyasini oshirishga ham xizmat qiladi.

O'quv mashg'ulotlarida o'qituvchilar quyidagi savollarga asoslangan holda autentik matnni tanlashlari kerak:

- Ushbu matn talabalarning ko'zlagan maqsadiga erishishiga yordam bera oladimi? (Instrumental)

- Ushbu matn mening talabalarimga amal qilishi mumkin bo'lgan qoidalar haqida ma'lumot beradimi? (tartibga soluvchi)

- Bu matn talabalarga shaxsiy fikrlarini ifoda etishga yordam beradimi?

– Ushbu matnlar talabalarimga dunyoni o'rganishga yordam beradimi?
– Ushbu matn talabalarga kimnidir ifodalash yoki yaratishda yordam beradimi?
– Ushbu matn talabalarimga xohlagan yoki kerakli bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadimi?

Autentik materiallardan foydalanish Firt tomonidan qo'llab- quvvatlangan, uning fikricha, autentik materiallarda tilni intuitiv, ixtiro qilingan, ajratilgan jumalarda emas, balki, tasdiqlangan, haqiqiy bo'lgan misollarda o'rganish kerakligini ta'kidlaydi. Shunga o'xshash qarashlar Stubbs tomonidan ham takrorlanib o'tilgan. U insonning til haqidagi intuitsiyasi o'ziga xos ekanligini ta'kidlab o'tgan. Xulosa qilib aytganda, yozma matnlarni shakllantiradigan bir qancha omillar mavjud bo'lib, ular funksional yozuvni o'qitishda autentik matnlardan foydalanishni talab qiladi. Bu omillarga ma'lum matnlarda uchraydigan iboralar texnik va texnik so'zlar, yozuvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar, kitobxonlar madaniyati kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Astonova.G. Yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari. Science and Education scientific journal, 2020.- 400 b. <http://www.openscience.uz/volume-1-issue-2>
2. Воробьев Г.А. Развитие социокультурной компетенции будущих учителей иностранного языка.- Пятигорск, 2003. –С.30-36.
3. Jacobson ,E, Degener, S., & Purcell-Gates,V. Creating authentic materials and activities for the adult literacy classroom: A handbook for practitioners. -USA: NCSALL. P.1, 2003.-138 p.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.-Toshkent, 2012. – 434 b.
5. Jalolov J.J, G.T.Makhkamova, Sh.S.Ashurov. English language teaching methodology. (course book). Tashkent, 2015.-338 p
6. Matsuta, K.Applications for using authentic materials in the second language classroom. Retrieved June 5, 2004, from Asia University Cele Department Web site: http://www.Asia-u.ac.jp/english/cele/articles/MatsutaAuthentic_Mat.htm
7. Mishan. F. Designing authenticity into language learning materials, -Bristol,UK, 2005.-330 p
8. Peacock, M. The effect of authentic materials on the motivation of EFL learners. ELT Journal, 51(2), 1997.- pp 144-156.
9. Rifat, A. S. Facilitating EFL learning using authentic materials: BUBT Journal, Vol (1) 2015.- 55 p.
10. Chavez & Monica, T. Learner's perspective on authenticity. Eric journal, 25(02), 1994.- pp.16-19.